

u

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 5230100

«___» _____ 201__ yil

Samarqand davlat uiversiteti
rektori:

R.I.Xalmuradov

201__ yil __ __

**REAL SEKTOR IQTISODIYOTI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – «Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq»

Ta'lim sohasi: 230000 – Iqtisod

Ta'lim yo'nalishi: 5230100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Samarqand -201_

bu dasturi Samarqand davlat universiteti Iqtisodiyot va biznes fakulteti
ida ko'rib chiqilgan va taysiya qilingan (2019 yil "22" 06) dagi
sonli bayonnoma.

kultet dekani

prof.B.Sh.Safarov

ning dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi

ni:

1. B.U.- Samarqand davlat universiteti "Iqtisodiyot va tadbirkorlik" kafedrasida

F.A. - Samarqand davlat universiteti "Iqtisodiyot va tadbirkorlik" kafedrasida
i.

hilar:

1. Q.J. – SamISI "Menejment va statistika" kafedrasida professor, i.f.d.

1. B.M.- SamDU "Iqtisodiy nazariya" kafedrasida dotsent, i.f.n.

bu dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2019 yil
4) dagi "10" sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

o'quv uslubiy Kengash raisi:

prof.A.S.Soleev

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Real sektor sohalarni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, real iqtisodiyot tarmoqlarida istikbolli loyixalarni amalga oshirish orqali yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunarlar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish eng avvalo samarali iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni va to'g'ri yo'naltirilgan sanoat siyosatini olib borishni taqozo etadi. Bunda realsektor iqtisodiyoti sohadagi korxonalar barcha ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanish orqali industrial sektor tarmoqlarini kengroq rivojlantirishlari asosiy vazifa xisoblanadi. Realsektor iqtisodiyot korxonalarida sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.

"Realsektor iqtisodiyoti" fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va uni mo'tadil rivojlantirishning echimlarini topishda xamda magistratura ta'limi "Iqtisodiyot (real sektor)" yo'nalishi mutaxassislarini shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuqva xulosalaridan mamlakat real sektor korxonalarini rivojlantirishda keng foydalaniladi.

II. Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - iqtisodiyot sohasida magistr'larga mamlakat real sektor tarmoqlari iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to'g'risida talabalarga real sektor tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tovarning sifatini ta'minlash va uning raqobatdoshligini oshirish, real sektor korxonalarini strategiyasini to'g'ri tanlash bo'yicha ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifalari - "Real sektor iqtisodiyoti" fanini o'rganishning asosiy vazifalariga magistr'larda real sektor tarmoqlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning real sektor korxonalarini ishlab chiqarishini boshqarish va uni izchil barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, davlatning iqtisodiy siyosatini jumladan, industrial tarmoqlari siyosatini chuqur anglatish, industrial tarmoqlari iqtisodiyotini boshka iqtisodiy fanlar yutuqlari bilan o'zaro hamkorlikda o'rgatish, iqtisodiy qonunlar, sanoat sohasida fundamental qoidalar va hodisalarning sanoat sohasida amal qilish xususiyatlarini o'rgatish va tahlil qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Real sektor iqtisodiyoti" fani bo'yicha magistr:

- bozor sharoitida Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishining mazmuni va ahamiyati;
- real sektorda bozor infratuzilmasining o'rni;
- real sektor korxonalar munosabatlari;
- real sektor faoliyati korxonalarining qonunchilik asoslari;

- real sektor korxonalarida investisiyalarni loyihalashtirish tamoyillari;
- real sektor korxonalarida mehnatni tashkil qilish tizimi;
- real sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarining ichki muhiti va tashqi muhiti **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishini tashkil etish yo'llarini;
- Real sektorda bozor infratuzilmasini rivojlanish yo'llarini;
- Real sektor strategiyasini ishlab chiqish yo'llarini;
- Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishini rivojlantirish samaradorligini;
- Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishini yuksaltirish yo'llarini;
- real sektorda mehnatni tashkil etish shakllarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishini rivojlantirishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqish;
- real sektor korxonalari faoliyatida hamkorlar bilan muzokaralar tashkil qilish;
- real sektor korxonalari faoliyatini yuksaltirish yo'llari;
- real sektorda bozor infratuzilmasini tahlil qilish;
- real sektor korxonalarida investisiya siyosatini samarali boshqarish;
- real sektor korxonalari uchun konsalting firmalarini yaratish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

• real sektor korxonalarida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda iqtisodiy modellarni qo'llash; iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish; iqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berish; iqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilish **malakalariga ega bo'lishi kerak**

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Real sektor iqtisodiyoti” fani mutaxassislik fani hisoblanib III-semestrda o'qitiladi.

Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar “Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash”, “Hozirgi zamon raqobat nazariyasi”, “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish”, “Real sektorda investision va innovasion faoliyat”, fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

“Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi” fani “Korxonalarining rivojlanish strategiyasi” fani va boshqa fanlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan

muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Real sektor iqtisodiyoti” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Yexeyel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimlari baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Asosiy qism: Faning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi isloxlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

ASOSIY QISM

1-mavzu. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Real sektor iqtisodiyoti- fan va o'quv kursi sifatida. Real sektor tarmoqlarining ta'rif va tavsifi. “Real sektorni iqtisodiyoti” kursining predmeti. “Real sektor iqtisodiyoti” fanining o'rganish uslubiyati va usullari. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rnini hamda boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligi. O'zbekistonda real sektor tarmoqlari va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar, farmonlar va nizomlar.

2-mavzu. “Real sektor tarmoqlari –milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor tarmoqlari va uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o'rnini. Real sektorda sanoat tarmoqlari-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i sifatida. Real sektorda aholining ish bilan bandligi masalalari. Real sektorda sanoat tarmoqlarining tarixiy rivojlanish yo'llari va asosiy yakunlari. O'zbekiston Respublikasi real sektorida sanoat korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi.

Real sektor tarmoqlarida iqtisodiy o'sish. Real sektorda sanoat tarmoqlarining o'sishi tendensiyasi-elekt energetikasini ishlab chiqarish, neft va gaz qazib olish, po'lat va prokat rangli metallar va kimyoviy mahsulotlar, ishlab chiqarishi mashinasozlik va metallga ishlov berish sohasining mahsulotlari qurilish materiallari yengil va oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi. Jahon real sektor tarmoqlari sanoat ishlab chiqarishida O'zbekiston sanoatining tutgan o'rni va strategik hamkorlikni kuchaytirish muammolari.

r -'

3-mavzu. Real sektorda sanoat tarmoqlari tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Real sektorda tarmoq siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi. Real sektorda sanoat tarmog'i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Real sektorda sanoatning tarmoqlarga bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Real sektorda sanoat tarmoqlari tuzilishining ko'rsatkichlari. Real sektorda sanoat tarmoqlari tuzilishini belgilovchi omillar. Tarmoq tuzilmasi o'zgarishining asosiy tendensiyasi. Real sektorda sanoatning zamonaviy tarmoq tuzilmasi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi yaqin va uzoq istiqboldagi ustuvor vazifalar.

4-mavzu. Real sektor korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimi (2 soat).

Real sektor tarmoqlarida boshqaruvning obyektiv zaruriyati va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida. Real sektor tarmoqlarini va umumiy iqtisodni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish. Real sektor tarmoqlarini ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan prognozlarini ishlab chiqish.

Real sektor tarmoqlarida barqarorlik tamoyili. Ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Real sektor korxonalarida boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yo'nalishlari.

5-mavzu. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishini bashoratlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari. Real sektorda tarmoq va korxonada darajasida sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishning xususiyatlari va uslubiy asoslari.

Real sektor tarmoqlarining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarining ahamiyati va o'rni. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi. Reja - birinchi hujjat va rejalashtirishning natijasi sifatida. Rejalarning turlari: indekativ, strategik, biznes-reja. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Ushbu mavzu yangi pedagogik texnologiyaning interaktiv usuli, aqliy hujum, klaster usullaridan foydalanilib talabalarga tushuntiriladi.

6-mavzu. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Real sektor tarmoqlarida samaradorlik real sektor korxonalari ishlab chiqarishining “ko’zgusi” sifatida. Real sektorda ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezon va ko’rsatkichlari. Real sektor ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi (umumlashtiruvchi va resurslar turi bo’yicha differensiallashtirilgan) va ularni hisoblash usuli. Qiyosiy (nisbiy) iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va ko’rsatkichlari. Keltirilgan xafaajatl va ularni hisoblash usuli. Yillik iqtisodiy samara va uni hisoblash usuli. Real sektor ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo’llari. Texnik va texnologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tashkiliy va huquqiy omillar. Real sektor korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

7-mavzu. Real sektor tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyoti va innovasion faoliyat

Real sektor tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati. Fan-texnika rivoji va real sektorni tuzilishi. Real sektorda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo’nalishlari. Real sektorda ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalashtirish. Elektrlashtirishning moddiy asosi bo’lgan yoqilg’i-energetika majmuasini rivojlantirish istiqbollari. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishini har tomonlama avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish. Real sektorda yangi zamonaviy texnologiyalarni tadbiq qilish. Real sektorda zamonaviy innovasion texnologiyalar tushunchasi va ularni joriy etishning asosiy yo’nalishlari. Real sektorda bio va nanotexnologiyalar va chet el tajribasi. Real sektorda fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash.

8-mavzu. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o’zaro bog’liqligi. Real sektorda konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko’rsatkichlari. Bozor iqtisodiyotiga o’tishda kichik va xususiy korxonalarining ustuvorligi. Mahalliyashtirish uning mohiyati va ahamiyati va mazmuni, maxalliyilatiradigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish – inqirozga qarshi choralar dasturining eng ko’plab masalalaridan biri ekanligi.

9-mavzu. Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalari faoliyati.

Real sektorda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko’rsatkichlari. Real sektorda kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlar. Real sektor korxonalari (firma)lari o’rtasidagi ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarining turlari hamda ularni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari. Real sektorda diversifikatsiyalash jarayonlari. Uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni. Iqtisodiyotni, jumladan, real sektor tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning eng muhim ustuvor yo’nalishi.

10-mavzu. Real sektor tarmoqlarida kadrlar masalasi va mehnatga haq to'lash

Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalari faoliyati va uning iqtisodiy ahamiyati. Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalarini tashkil etish va boshqarish masalalari. Agrosanoat majmuasi korxonalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish masalalari. Agrosanoat majmuasi korxonalari tomonidan sanoat korxonalarini uchun xom ashyo va resurslar yetakzib berish borasidagi iqtisodiy munosabatlar.

Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalarini tomonidan mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili. Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalarini rivojlantirish istiqbollari.

11-mavzu. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish chora-tadbirlari. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash borasidagi ijobiy o'zgarishlar. Ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarningizchil amalga oshirilishi. Real sektor tarmoqlarida kadrlar siyosati va uning real sektor tarmoqlari taraqqiyotidagi roli. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi. Xodimlarni guruhlariga ajratish va kadrlarning zamonaviy tuzilmasini tashkil etish. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish. Kadrlardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash. O'zbekiston real sektor tarmoqlarida kadrlar salohiyatini kuchaytirishda chet el tajribasini keng qo'llash. Real sektor tarmoqlarida mehnat va unga haq to'lash. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tarif tizimi, uning mohiyati, ish haqini tashkil etish va tartibga solishning ahamiyati. Real sektor tarmoqlarida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish muammolari.

12-mavzu. O'zbekiston real sektor tarmoqlarining xomashyo manbai va uni joylashtirish

Real sektor tarmoqlarida asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston real sektor tarmoqlarida asosiy fondlarning dinamikasi tahlili. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va tuzilmasi. Umumiy, texnologik tarmoq, hududiy tuzilmalar va ularning tarmoqlararo nisbatlari. Real sektor tarmoqlarida asosiy fondlarning strukturasi ta'sir etuvchi omillar. Asosiy fondlarni baholash usullari. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi. Jismoniy va ma'naviy eskirish. Amortizatsiya siyosati va uni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Amortizatsiya ajratmalari: mohiyati, ahamiyati, ulardan foydalanishning normalari va yo'nalishlari. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari. Fond sig'imi va qaytimi. Ularning iqtisodiy samaradorligi. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari. Unga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish quvvatining tuzilmasi va dinamikasi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni o'rchash.

13-mavzu. Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag'lari

Real sektor tarmoqlarida xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi. Xomashyo va yoqilg'i-energetika resurslari tushunchasi va ularni guruhlariga ajratish. Real sektor tarmoqlarida xomashyo bazasini kengaytirish uchun geologiya-qidiruv ishlari va tabiiy boyliklarni o'rganishning ahamiyati. Foydali qazilmalar zaxiralarini turkumlarga ajratish. Mineral xomashyo va yoqilg'ilarni iqtisodiy baholash. O'zbekistonda mineral xomashyo, yoqilg'ilarni qazib olib va elektr energiyasi ishlab chiqarish dinamikasi. Sun'iy va sintetik materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi. Real sektor tarmoqlarida xomashyo, yoqilg'i va energiyani tejashning asosiy yo'nalishlari. Mineral xomashyo va ulardan oqilona foydalanish.

14-mavzu. Real sektor tarmoqlarida mahsulotning sifati va uning raqobatbardoshligi

Real sektor tarmoqlarida aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati. Real sektor tarmoqlarida aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi. Aylanma fondlari elementlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va mahsulotning material sig'imi. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari. Real sektor tarmoqlarida material resurslarini tejashning asosiy yo'nalishlari va zahiralari.

Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish. Aylanma mablag'lar va ularning mohiyati va ahamiyati. Aylanma va muomala fondlari. Ularning tarkibi va aylanish ko'rsatkichlari. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.

Iqtisodiyot raqobatbardoshligining mohiyati, omillari, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi roli. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlash shartlari. Real sektor tarmoqlarida sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviy darajasi.

Mahsulot (xizmatlar) sifatining tavsifi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlarini guruhlariga ajratish va nomenklaturasi. Mahsulot sifati darajasini baholash usullari. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari. Mahsulot (xizmatlar) sifatini jahon talabiga ko'tarish yo'llari. Mahsulot sifatini oshirishning texnologik, iqtisodiy, tashkiliy yo'nalishlari. Mahsulot sifatini yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish.

15-mavzu. Real sektor tarmoqlari rivojlanishida chet mamlakatlari tajribasi

Real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalarning o'rni va ahamiyati. Real sektor tarmoqlari rivojida Amerika Qo'shma Shtatlari sanoati tajribasi. Real sektor tarmoqlari rivojida Yevropa (Germaniya, Angliya, Italiya, Fransiya va boshqa davlatlar) tajribasi va undan foydalanish masalalari.

Real sektor tarmoqlari rivojida Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

"Real sektor iqtisodiyoti" fanidan kurs ishi o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha, shuningdek, fanni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beruvchi boshqa mavzular bo'yicha tayyorlanadi.

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustakil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish. Talaba mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'yidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanning bulim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;
- ilmiy maqola, tezislar, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va x.k.

Mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar tuplami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar echish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

Real sektor tarmoqlari - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida o'rganish bosqichlari.

Real sektorda sanoat tarmoqlari tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tadqiq qilish masalalari.

Real sektor korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish va uning ahamiyati.

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish masalalari.

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini

oshirish jarayonlari.

Real sektor tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyoti va innovasion faoliyatni joriy etish masalalari

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish muammolari.

Real sektorda agrosanoat majmuasi korxonalarini faoliyati tahlili.

Real sektor tarmoqlarida kadrlar masalasi va mehnatga haq to'lash masalalari.

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish yo'llari.

O'zbekiston real sektor tarmoqlarining xomashyo manbai va uni joylashtirish yo'nalishlari.

Real sektor tarmoqlarida ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari

Real sektor tarmoqlarida mahsulotning sifati va uning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari

Real sektor tarmoqlari rivojlanishida chet mamlakatlari tajribasi va undan foydalanish istiqbollari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

- 1 Artikov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik -T.: O'zbekistan yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2014. 220 bet.
- 2 Sanoat iqtisodiyoti T -2014 Abdirahim Ortiqov
- 3 Korxonona iqtisodiyoti 2014 yil R.S.Muratov, I.A.Djalalova
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y
- 5 Zaysev NL. Ekonomika promyshlennogo predpriyatiya. Uchebnik. -M.: «Infra-M», 2008. - 410 str.
- 6 Kleyner G.B. Strategiya predpriyatii. Uchebnik. - M.: «Delo», 2008. - 561 str.
- 7 Magomedov Sh.Sh, Bespalova G.Ye. Upravleniye kachestvom produkcii. Uchebnik. - M.: «Dashkov i K°», 2010. - 336 str.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1 Rozanova N.M, Zoroastrova I.V. Ekonomicheskij analiz firmy i rynka. Uchebnik. - M.: YuNITI-DANA, 2009. - 279 str.
- 2 Razdarojnnyy A.A. Organizatsiya proizvodstva i upravleniye predriyatiyem. Uchebnik. - M.: Ekzamen, 2009. - 876 str.
- 3 Rostova Yu.I. i dr. Ekonomika organizatsiy (predpriyatij) v sxemax. Ucheb. posobiye. - M.: 2009. - 240 str.
- 4 Maxmudov E.X. Korxonaiqtisodiyoti. O'quvqo'llanma.-T.: O'zbekistonyozuvchilaruyushmasiAdabiyotjamg'armasinashriyoti, 2005. - 170 bet.

Internet saytlari

- 1 www.economics.ru
- 2 www.ved.ru
- 3 www.ser.uz
- 4 www.uza.uz
- 4 www.ifmr.uz
- 5 www.Lex.uz
- 6 www.ziyonet.uz

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar

1. International Journal of Business Forecasting and Marketing Intelligence. www.inderscience.com
2. Ansoff matrix. www.free-management-ebooks.com
3. Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.